

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
5. Qurbonova E‘zoza HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
7. Usmonova Zarina Habibovna THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
8. Valieva Noiba Abbasxonovna TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
9. Dilorom Ikramovna Hakimova “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
10. Xasanova Shaxzoda FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна HEMIS TILI ФЕЪЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
17. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
18. Maftuna Kamarova Umar qizi KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
20. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодира Бахронкуловна РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
23. Ikramova Kamola Shuhratovna THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abruykul kizi SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
26. Muhtarova Nigina THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
29. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
30. Ikromova Nigina Oybekovna THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
31. Эргашева Дилноза Тохировна АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
32. Nasiba Azizova THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz


Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna

Yaponshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi, Ph.D.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

dilafruz.nippon@gmail.com

TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA'SIRI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14799643>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada til va tafakkur qay tarzda bir biriga ta'sir qilishi haqida tahlil qilinadi. Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayon. Til tafakkurga ta'sir ko'rsatadimi yoki aksincha tafakkur tilga ta'sir ko'rsatadi munozarali mavzu bo'lib, olimlar tomonidan yagona to'xtamga kelinmagan. Maqolada til va tafakkur bog'liqligi masalasi qachon muammo sifatida qo'yilgani haqida muhokama qilinib, antik davr tilshunosligi til va tafakkur masalasiga munosabati, Yevropa tilshunoslari Gumbold va Sepirning til va tafakkurning bog'liqligi haqidagi qarashlari asosida tadqiq qilinadi. Shuningdek, tilning tafakkurga qanday ta'sir ko'rsatishi, tafakkurning tilga ta'siri qay tarzda namoyon bo'lishi yapon va o'zbek tillari misolida tahlil qilinadi. Natijada tildan tafakkurga borish shaxs tafakkurini shakllantirishi, kengaytirishi, tafakkurdan tilga borish esa turli xalqlarning olamga bo'lgan o'zgacha qarashini aniqlash imkonini berishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Til, tafakkur, ong, olamni ko'rish tarzi, lisoniy tafakkur, olamning lisoniy manzarasi.

Абдухамидова Дилафруз Абдухабировна

Старший преподаватель Высшей школы японоведения, Ph.D.

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

dilafruz.nippon@gmail.com

ВЛИЯНИЕ ЯЗЫКА НА МЫШЛЕНИЕ И МЫШЛЕНИЯ НА ЯЗЫК**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется, как взаимодействуют язык и сознание. Язык и сознание неразрывно связаны. Влияет ли язык на сознание или, наоборот, сознание влияет на язык – тема спорная, и ученые не пришли к единому выводу. В статье рассматривается вопрос о том, когда вопрос о связи языка и мышления был поставлен как проблема, и исследуется отношение античной лингвистики к вопросу о языке и мышлении, исходя из взглядов европейских лингвистов Гумбольдта и Сепира о связи языка и мышления.

Также на примере японского и узбекского языков анализируется, как язык влияет на мышление, как проявляется влияние мышления на язык. В результате показано, что переход

от языка к мышлению формирует и расширяет мышление человека, а переход от мышления к языку позволяет определить неповторимый взгляд на мир разных народов.

Ключевые слова. Язык, мышление, сознание, способ видения мира, языковое сознание, языковая картина мира.

Abdukhmidova Dilafruz Abdukhairovna

Senior Lecturer, Graduate School of Japanese Studies, Ph.D.

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan.

dilafruz.nippon@gmail.com

THE INFLUENCE OF LANGUAGE ON THOUGHT AND THOUGHT ON LANGUAGE

ABSTRACT

This article analyses how language and thought influence each other. Language and thought are closely related processes. Whether language affects thought or, conversely, thought affects language remains unresolved among scholars. The article discusses when the relationship between language and thought became an issue, examining the perspectives of ancient linguistics on this matter. It also investigates the views of European linguists like Humboldt and Sapir on the connection between language and thought. Additionally, the article analyzes how language influences thought and how thought manifests in language, using the examples of the Japanese and Uzbek languages. As a result, it shows that the path from language to thought shapes and expands individual thinking, while the path from thought to language reveals the unique worldviews of different peoples.

Keywords. Language, thinking, consciousness, way of seeing the world, linguistic consciousness, linguistic picture of the world.

Til va tafakkur haqida gapirar ekanmiz, avvalo tafakkur tushunchasi bilan ong tushunchasini farqlab olishimiz kerak bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ularga quyidagicha ta'rif berilgan. Tafakkur(arab. fikr yuritish, o'ylash, fikrlash) 1.Obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol inikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash. Til tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. 2. O'ylash, fikr yuritish, muhokama, o'y. **Ong-** odam ruhiy faoliyatining oliy shakli, kishining fikrlash qobiliyati, aql, idrok. Bolaning ongini o'stirish. 2. Odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati Siyosiy ong. 3.Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi. 4. Belgili bir ijtimoiy guruh vakili bo'lgan kishilarning psixologik, siyosiy va falsafiy nuqtai-nazarlari, diniy, badiiy qarashlari majmui. *Turmush ongni belgilaydi.* Demak, ong bizning hayotiy jarayonlarimizni o'zida aks ettiradi, bilimlarimizni saqlaydi. Tafakkur esa jarayondir.

Aslida til va tafakkur masalasi, ular o'rtasidagi munosabat hali tilshunoslik alohida fan sifatida shakllanmagan antik davrdanoq falsafa nuqtayi nazaridan o'rganib kelingan. Qadim-qadimdan falsafada qomusiy olimlar Platon, Geraklit va Aristotel tafakkur, ong va til o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganganlar. Nutq orqali individ mantiqiy tafakkurni o'zlashtirib, o'zining va olamning mavjudligi haqida mulohaza yuritadi. Yunon falsafasi asosida narsa-buyum, so'z va fikr munosabatiga asosiy e'tibor qaratilgan. Bu davrda hali tilning mohiyati haqida tushuncha mavjud emas edi. Antik davr olimlari narsalarni nomlash asosida shu narsa, u anglatayotgan fikr va so'z o'rtasidagi munosabatlarni aniqlab, tildagi shakl va mazmun o'rtasidagi dixotomiyani o'rnatib til nazariyasiga katta hissa qo'shadilar.(Xrisipp, Krates Maloskiy mil.avv. 2 asr). Antik davrda olimlar so'z insonga olamni tushuntirish, bilim olish, shaxsning ijtimoiy faoliyatini tartibga solish imkonini berishini aytishgan. Narsalarni nomlashda esa so'z vosita vazifasini bajarib, uni to'g'ri tashkil qilish va qo'llash kerakligi aytiladi, aks holda jamiyatdagi tartib buziladi. Kimki o'zining ishida so'zni to'g'ri ma'noda, uning nozik ma'noviy bo'yoqlarini ongli ravishda ajratib qo'llasagina muvaffaqiyatga erishadi deyiladi. So'z ham tovushlar orqali ifodalanib, inson qalbida predmetlar uyg'otgan kabi taassurot uyg'otadi. Demak, antik davrlardanoq so'zga nafaqat narsa-buyum

haqidagi, balki olam, borliq haqidagi tasavvurlar hosilasi sifatida qaralgan. Soʻz yoki logosga dunyoviy tafakkur mahsuli yoki alohida bir shaxsning ongilligi mahsuli sifatida qaralgan.

Ilk bor til va tafakkur munosabati Gumboldning ishida tilga olinadi. Gumbold tilni nafaqat nutq bilan aloqasi jihatidan, balki hissiy anglash, tafakkur faoliyatiga munosabati jihatidan ham koʻrib chiqadi. U tilni inson ruhiyati bilan bogʻlaydi. Til fikrni hosil qiluvchi organ. Gumbold intellektual faoliyat butunlay ruhiy jarayonligini taʼkidlaydi. Tovush orqali nutq moddiylashadi va shu orqali hissiy idrok etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuning uchun intellektual faoliyat va til yagona butunlikni tashkil qiladi. Oʻz navbatida fikrlash jarayoni til tovushlari bilan aloqador boʻlib, ularsiz nutq aniqlik va tushunarlikka ega boʻlmas edi. U tovush va fikrning bogʻliqligini aytib, momaqaldiroq tovushi yoki biror zarba tovushini eshitish orqali oʻsha zahoti fikr yuzaga kelishini aytadi. Fikr butun qalbni egallab olganidek, tovush ham qoʻqqisdan insonni ajablantirishi mumkin. Tafakkur tarzi tilga bogʻliq boʻlishi va bu hodisa turli tillarda turlicha ekanligini ham Gumbold ilk bor taʼkidlagan. Turli tillar oʻrtasidagi farq nafaqat tovush va belgilarning farqlanishida kuzatiladi, balki olamni koʻrish tarzining farqliligidadir. U obyektiv haqiqat va individning subyektiv olami oʻrtasidagi reallik bu til ekanligini haq aytadi. Til bu obyektivlik va subyektivlikni tashkil qiluvchi buyuk vositadir. Bunda u bu bogʻliqlikni quyidagicha tushuntiradi: bir qarashda soʻz subyektiv tabiatga egadek koʻrinadi, lekin tafakkur qiluvchining ongida u obyektga aylanadi. Hamda tafakkur qiluvchiga teskari taʼsir koʻrsatadi. Ruhiyatning subyektiv faoliyati ongda alohida obyekt hosil qiladi. Bu obyekt esa olamning oddiygina nusxasi boʻlmay til tizimiga muvofiq qurilishga ega boʻladi. Bu jarayon esa shu tassavur egasi boʻlgan subyektdan uzilmagan holda amalga oshadi. Hech bir tushuncha tilsiz mavjud boʻlmaganidek, bizning qalbmizda ham usiz biror predmet mavjud boʻlmasdi.

Til va tafakkur bogʻliqligi masalasi falsafa, psixologiya, tilshunoslik va antropologiya sohalarida koʻpgina munozaralarga sabab boʻlgan. Shunday munozarali farazlardan biri Sepfir va Uorf tomonidan berilgan lingvistik nisbiylik nazariyasidir. Sepir va Uorf nazariyasi 2 xil talqinga ega. Bu nazariyaning kuchli talqinida til tafakkurni belgilaydi deb aytiladi, kuchsiz talqinida esa til tafakkurga taʼsir koʻrsatadi deyiladi. Insonlar soʻzlayotgan til ularning atrof olam haqida qanday tafakkur qilishlariga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir qiladi. Til tafakkurga taʼsir koʻrsatadimi? Olimlar Til tafakkurga taʼsir koʻrsatishini bir necha tajribalar orqali isbotlashgan. Jumladan, K.Stasevichning 2015-yilda eʼlon qilinga maqolasida bir vaqtning oʻzida 2 tilda gapira oladiganlar dunyoga 2 xil nazar bilan boqishlarini isbotlashgan. Ular ham ingliz, ham nemis tilida gapiruvchilar oʻrtasida tajriba oʻtkazib, biror voqea-hodisa aks etgan video koʻrsatadilar. Qatnashchilar nemis tilida gapirganda sodir boʻlayotgan jarayondan maqsadni qidirishi, ingliz tilida soʻzlayotganda esa harakatning oʻziga urgʻu berilishi aniqlangan. Keyingi bosqichdagi tajribada ulardan oʻsha tilning sanoq sonlari orqali harakatlarni tasvirlab berish soʻralgan, sanoq tili oʻzgarishi bilan koʻrilayotgan hodisani qabul qilish ham oʻzgargan. Demak, boshqa til bizning tafakkurimizni kengaytiradi va olamga boshqa nigoh bilan boqishga undaydi.

Inson olamni anglashi, atrofda voqea-hodisalarni ona tili asosida angelaydi. Tafakkur xalqning milliy-madaniy oʻziga xosliklari asosida shakllanadi, yaʼni madaniyat tafakkurga taʼsir koʻrsatadi va bu tilda oʻz aksini topadi. Shuning uchun lisoniy tafakkur faqat til orqaligini oʻz ifodasini topadi. Millat tarixi, milliy urf-odatlar, xalq madaniyati, xalqning yillar mobaynida toʻplangan tajribasi asosida shu xalq dunyoqarashi, olamga boʻlgan munosabati shakllanadi. Shu orqali oʻziga xos olamning koʻrish tarzi yuzaga keladi. Olamning koʻrish tarzi bilan tafakkurning bevosita bogʻliqligi yoʻq. Ular til orqali bogʻlanadi. Shuning uchun “Til-inson-tafakkur uchligi kognitiv tilshunoslikda xarakterlidir. Tilga obyektiv yondashuvchi tadqiqotchilar olamning lisoniy manzarasini quyidagi sxema asosida ifodalaydilar: inson→nutq tafakkuri→anglash→obyektiv olam. Inson obyektiv olamni tafakkur orqali angelaydi va bu tilda aks etadi. Boshqa soʻz bilan aytganda, til tafakkurni ifodalaydi, tafakkur esa obyektiv olamni anglash orqali gavdalantiriladi. O.A.Kornilov oʻz navbatida inson nafaqat fikrlaydi va angelaydi, balki real dunyoda mavjud boʻlmagan narsalarni his qilib, baholaydi, tasavvur qiladi, ruhiy kechinmalarni boshdan oʻtkazishini taʼkidlaydi. Shu tariqa yuqoridagi sxemani kengaytirishni taklif qiladi: inson→tafakkur→anglash→obyektiv olam→olamning lisoniy manzarasi. Demak, til inson tafakkurini aks ettiradi. Asosiysi obyektiv olam

inson tafakkurida ko'zgdagidek yaqqol tarzda emas, har bir individning o'ziga xos olam manzarasi shakliga aylangan holda gavdalanadi. Bunga misol tariqasida yapon va o'zbek tillaridagi qarindoshurug'chilikka oid birliklarni keltirish mumkin. O'zbek tilida qarindoshlik birliklari ota tomondan yoki ona tomondan ekanligiga qarab farqlanib, ota-onaning aka-uka opa-singillarini anglatish uchun 4 alohida amaki amma, tog'a va xola so'zlaridan foydalanilsa, yapon tilida bu 4 munosabat *oji, oba* tarzida faqat jins jihatdan farqlanib 2 munosabatni anglatadi. Bu esa yapon tafakkurida ota tomon va ona tomonga qarab munosabatlar farqlanmasligini, o'zbek tilidagi 4 munosabat tafakkurda faqat 2 munosabat shaklida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Umuman o'zbek xalqidek munosabatlar farqlanishi, yaponlardagi qarindoshlik munosabatlari bilan mos kelmasligini ko'rsatadi. Shunga mos ravishda amma, xola, amaki, tog'aning farzandlari amnavachcha, amakivachcha, xolavachcha kabi munosabatlar yapon tilida birgina munosabatga mos keladi va *いとこ* [itoko] tarzida tilda o'z ifodasini topadi.

Rangga bo'lgan qarash ham turli xalqlarda turlichadir. Rus tilidagi "siniy" ko'k va "goluboy" moviy ranglarning ifodalanishi ham turli xalqlarda turlicha. O'zbek tilida ko'k to'q bo'yoqni moviy esa nisbatan och bo'yoqni anglatib 2 alohida tushuncha orqali beriladi. Bundan tashqari, moviy anglatish uchun havorang so'zi ham ishlatiladiki, bu o'zbeklar tafakkurida havoning ko'rinish och ko'k tarzida tasavvur qilinishi bilan bog'liqdir, vaholanki havo rangsiz. Bu esa o'zbek tilining izohli lug'atida havo so'zining "osmon, ko'k" ma'nosi berilgani bilan bog'liq. Demak, o'zbeklarda moviy so'zi osmonning rangi bilan assotsiatsionaladi. Inglizlarda bu rang uchun faqat bir so'z **blue** ishlatilib, buni **light blue** och ko'k va **dark blue** to'q ko'k shaklida darajani anglatuvchi so'z orqali ifodalashadi. Yapon tilida ham ingliz tilidagi kabi *青*[ao] ham ko'k rangni ham moviy anglatadi. Koreyslarda esa *파란색*[paransek] ko'k va *푸른색*[purinsek] osmonrang shaklida ikki alohida so'z ishlatiladi. Demak, koreyslar ham moviyda osmon rangini ko'rishadi.

Bu kabi vaziyatni tilning sanoq tizimida ham ko'rish mumkin. Sanoq sistemasi ham turlicha o'zbek tilida 97 to'qson va yetti so'zlari qo'shilmasidan, yapon tilida esa 97 [kyujyunana] shaklida 9 va 10 va 7 birlik, o'nlik va birlik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Yuz *百*[hyaku] va ming *千*[sen] o'zbek tilidagi kabi ifodalansa, 10000 soni 10 va mingning qo'shilishi natijasida yasalsa, 1 *万*[ichi man] yapon tilini o'rganuvchi o'zbeklar tasavvur qilishi qiyin miqdordir, chunki u 1 va 10 mingni qo'shilishidan yasali, *万*[man] 4 ta 0ni ifodalaydi. O'zbeklar tasavvurida 10 mingni 10 va 3 ta 0 deb tasavvur qilsalar, yaponlar 1 va [man] ieroglifi bilan 4 ta nol deb tasavvur qiladilar va bu ona tilisi o'zbek tili bo'lganlar uchun tushunish va anglashga ancha mushkul. Mos ravishda 100 million ham 100 va million sonlarining qo'shilishi natijasida yasalsa, yapon tilida 1 *億* [ichi oku] 1 va 8 ta 0ni anglatuvchi *oku* birligi bilan ifodalanadi.

Tafakkurning tilga ta'sirini frazeologik birliklar misolida ham ko'rish mumkin. Yapon tilida *太っ腹*[futoppara] *bag'ri keng* ma'nosini anglatib tana a'zosi qorin bilan ifodalanib, qorni semiz tarzida aks etadi hamda qorin aslida lisoniy tafakkurda yurak, qalbni ifodalaydi. Lekin o'zbek tilida bu tana a'zosi *bag'ir* so'zi orqali ifodalanadi. Yapon tafakkurida tashqi tarafdan yaqqol ko'rinib turuvchi tana a'zosi qorinning semizligi orqali namoyon bo'lib, shaxsning ichki xususiyati, fe'l-atvori ifodalanadi. Lekin, o'zbek tilida *bag'ri keng* so'zi orqali tananing bo'yindan qoringacha bo'lgan old qismi ko'krak orqali tafakkurda namoyon bo'ladi va dargohi, quchog'i keng, fe'li keng shaxs ma'nosini ifodalamoqda. Xuddi shu holatni *腹が黒い*[haraga kuroi] so'zma so'z qorni qora tarzida ifodalanib, ichi qora ma'nosini anglatadi. Bu birlikda ham qorin qalbni ifodalab kelmoqda, lekin bu yapon tafakkurida sirtqi ko'rinish zohiriy orqali shaxsning ichki xususiyatni, botiniy xususiyatni anglatmoqda. Lekin o'zbek tafakkurida bu to'g'ridan to'g'ri ichkariga qaratilgan bo'lib, tilda ham ichi qora tarzida bevosita ifodalanoqda.

Tildan tafakkurga borish xorijiy til shaxs tafakkurini kengaytirish va olamga boshqa nigoh bilan boqish imkonini yaratadi. Tafakkurdan tilga borish esa turli xalqlarning olamga bo'lgan o'zgacha qarashi, olamni o'ziga xos ko'rish tarzini anglashga, shu xalqning yillar mobaynida orttirgan tajribasini urf-odatlarini, milliy madaniyati asosida shakllangan dunyoqarashini teran anglash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдухамидова Д.А. Япон ва ўзбек тилларида қариндош-уруғчиликни ифодаловчи лексик бирликларни системалаштиришга оид. // “Шарқшунослик” илмий журнали. ТошДШУ, 2020. 2-сон. – Б.156-168.
2. Гумбольдт В.фон.О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984. С. 318.
3. Корнилов О.А. Языковые картина мира как производные национальных менталитетов. М.:ЧеРо, 2003.- 345 с.
4. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. М., 1993. С.83.
5. Стасевич К. Как язык влияет на сознание. // Наука и жизнь. М., 2015.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. B.216.
7. 遠藤 織枝 (2003) 「使い方の分かる 類語例解辞典」小学館. 1410 p.
8. 日本大百科全書(ニッポニカ) (2022) 小学館 <https://kotobank.jp/dictionary/nipponica/160/>
9. 松村 明 (2023) 「国語辞書デジタル大辞泉」小学館 <https://dictionary.goo.ne.jp/jn/>
10. 「ブリタニカ国際大百科事典 小項目事典」 (2023) Britannica Japan Co., Ltd. <https://kotobank.jp/dictionary/britannica/162/>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000